


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60810100- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining
malaka talablari**

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 21»
08 dagi 267-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
2.3.1.	<i>60810100–Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar	8
2.3.2.	<i>60810100–Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	8
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10
	Kelishuv dalolatnomasi.....	11

1. 60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60810100 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60810100 - Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60810100- *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;
- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60810100- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60810100- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60810100- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u yer, suv, yonilg‘i-energetika va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalangan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishda zamonaviy resurstejamkor mexanizatsiyalashgan texnologiyalar va texnika vositalarini ishlab chiqish, mahalliy ish sharoitidan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish jarayonlari, qishloq xo‘jaligi mashinalari texnologik jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning maqbul turini qo‘llash hamda qishloq xo‘jaligi texnikalaridan oqilona foydalanish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60810100- Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- qishloq xo‘jaligi tizimidagi mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish jarayonlari;
- qishloq xo‘jaligi mashinalari, texnikalari, vositalari va asbob-uskunalar;
- ta‘lim yo‘nalishiga mos ilmiy-tadqiqot va o‘quv-tarbiya jarayonlari;
- agrosanoat majmui korxonalarini va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob‘ektlarida

qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha va o‘zgarishlar muayyan talim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60810100 - *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta‘limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60810100 - *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- ekspluatatsiya va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

1.2.4. 60810100 - *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810100- *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- mashina-traktor parklari va qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo‘llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxon va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma‘lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritish;
- ishlab chiqarish samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasini oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, ishlanmalar va ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash borasidagi yangi ma'lumotlar va axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari texnik servisi va ta'mirlash strategiyasini belgilash va qo'llash;
- texnik servisini tashkil etish, ishlab chiqarish rejalarni tayyorlash va amalga oshirish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari va ularning agregat, mexanizm, bort axborot tizimlari hamda texnologik jihozlari konstruktsiyasini bilish va ulardan samarali foydalanish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalari ekspluatatsiyasida muhandislik tizimlarini qo'llash orqali uning atrof-muhitga zararini kamaytirish;
- traktor, avtomobil hamda qishloq xo'jalik texnikalariga servis xizmati ko'rsatish tizimlari va vositalarini qo'llash.

2. 60810100–Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- strategik va operativ boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning

zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ob'ektlari uchun texnikalar tanlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashni amalga oshira olishlari va ular asosida ishlab chiqarish loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish agrotexnikasi va zootexniya talablarini qanoatlantiruvchi energiya-resurstejamkor tejamkor, samarali mexanizatsiyalashgan texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

- qishloq ishlab chiqarish sub'ektlari uchun zarur texnika vositalarini tanlashni bilishi, ulardan samarali foydalanishni tashkil etishi va boshqarishi;

- mahalliy sharoitga qarab ish turlarini o'z agrotexnik muddatlarida sifatli amalga oshirishni ta'minlaydigan texnika vositalari va jihozlarini tanlash hamda ularning texnik servisi va ekspluatatsiyasini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-resurstejamkorlikka erishishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligi ob'ektlarida texnikaviy ta'minot tizimini texnik-iqtisodiy tahlil qilishni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashni, istiqbolli rejalar tuzishni bilish;

- uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personalini), umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiiq etishni bilish;

- elektron qurilmalar elektr sxemalarini ishlab chiqishda yarim o'tkazgich priborlardan foydalanish, elektronika, maishiy xizmat va ishlab chiqarish elektr uskunalari montaji va sozlash, avtomatika vositalarini hisoblash va tanlash, montaj, sozlash va ekspluatatsiyalash, elektr yuritmalar sistemasini tanlash, elektr motorlar quvvatini tanlash, elektr yuritmalarni boshqarish sxemalarini ishlab chiqish, roslash va kommutatsiyalash apparatlarini tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60810100–Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4920	164
Tanlov fanlar	1350	45
Malakaviy amaliyot	780	26
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

2.3.2. 60810100–Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4920	164	
1.01	XT1110	Xorijiy til (I-II-qism)	300	10	1, 2
1.02	MAT1106	Oliy matematika	180	6	1
1.03	TIL1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.04	HFX1105	Hayot faoliyati xavfsizligi	150	5	1
1.05	TD1109	Tuproqshunoslik va agrokimyo (I-II-qism)	270	9	1, 2 (2, 3)*
1.06	QXMA1106	Qishloq xo‘jaligi muhandisligi asoslari (Kredit modul tizimi)	180	6	1 (2)*
1.07	OYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2 (3)*
1.09	FIZ1105	Fizika	150	5	2 (3)*
1.10	MKG1105	Muhandislik va kompyuter grafikasi	150	5	2 (3)*
1.11	EM2106	Ekspluatatsion materiallar	180	6	3 (4)*
1.12	ChMYT2105	CHorvachilik maxsulotlarini yetishtirish texnologiyalari	150	5	3 (4)*
1.13	FAL2104	Falsafa	120	4	4
1.14	EEA2105	Elektrotexnika va elektronika asoslari	150	5	3 (5)*
1.15	TIUA2105	Termodinamika va issiqlik uzatish asoslari	150	5	3 (6)*
1.16	MEX2116	Mexanika (I-II-III-IV-qism) (NM, MQ, MMN, MD)	480	16	3, 4, 5, 6 (5, 6, 7, 8)*
1.17	MKMT2106	Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi	180	6	4 (5)*
1.18	GG2105	Gidravlika va gidroyuritmalar	150	5	4 (6)*
1.19	TTV3111	Traktorlar va transport vositalari (I-II-qism)	330	11	5, 6 (7, 8)*
1.20	QXM3112	Qishloq xo‘jaligi mashinalari (I-II-qism)	360	12	5, 6 (8, 9)*
1.21	AQX3106	Aniq qishloq xo‘jaligi	180	6	5 (9)*
1.22	ChTT4110	CHorvachilik texnika va texnologiyalari (I-II-qism)	300	10	7, 8 (10, 11)*
1.23	QXTFTS4110	Qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish va texnik servis (I-II-qism)	300	10	7, 8 (10, 11)*
1.24	ITTUT4105	Innovatsion texnika va texnologiyalar va ularning transferi	150	5	7 (11)*
2.00		Tanlov fanlar	1350	45	
2.00		Tanlov fanlar (9 ta fan)	1350	45	3, 4, 5, 7, 8 (4, 5, 7, 8, 10, 11, 12)*
		Jami	6270	209	
		Malakaviy amaliyot	780	26	2, 4, 6, 8 (3, 6, 9, 12)*
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8 (12)*
		Jami	930	31	
		HAMMASI	7200	240	

Izox: *-bir o‘quv yilini uch ta semestr ga bo‘lganlar uchun.

2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-mexanik.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, *ilmiy-tadqiqot*, *loyiha-konstruktorlik*, ekspluatatsion va texnik servis, *texnologik-ishlab chiqarish*, tashkiliy-boshqaruv, qishloq xo'jaligi texnikalari, texnologik ish jarayonlari, sozlanishlar, ishga tayyorlash, foydalanish, sifatni baholash va nazorat qilish, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**

Rektor  B. Mirzayev



M.O. 202__ yil «__» _____

KELISHILDI:

**O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari
uyushmasi**



Rais  M. Raxmatov

M.O. 202__ yil «__» _____

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor  Sh. Yakubov



M.O. 202__ yil «__» _____

“UZCLAASAGRO” MCHJ

Bosh direktor  X. Eshankulov



M.O. 202__ yil «__» _____

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Rektor  K. Komilov



M.O. 202__ yil «__» _____

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Rektor  Sh. Ergashev

M.O. 202__ yil «__» _____



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti**
**60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka
talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy
kadrlar iste‘molchilar o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ___ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasi raisi M.Raxmatov, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov, Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori Sh.Ergashev, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori B.S.Mirzayev birgalikda “TIQXMMI” MTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60810100 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek halqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

**O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik
klasterlari uyushmasi
raisi**



M. Raxmatov

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
rektori**



K. Komilov

**Namangan muhandislik-qurilish
instituti rektori**



Sh. Ergashev

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti
rektori**



B. Mirzayev